



Date: 09 June 2026

## PUBLITSISTIK USLUBDA SHAXS NOMLARINI IFODALOVCHI PERIFRAZALAR

Muxammedova Dilshoda Nodir qizi

Buxoro davlat universiteti

filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili ta'lim yo'nalishi

2-bosqich talabasi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada publitsistik uslubda shaxs nomlarini ifodalashda qo'llaniladigan perifrazalarning lingvistik xususiyatlari, ularning ma'no va uslubiy vazifalari tahlil qilinadi. Shuningdek, ommaviy axborot vositalari va publitsistik matnlarda mashhur shaxslar nomini bevosita aytmasdan, ularni obrazli va ta'sirchan tarzda ifodalovchi perifrazalarning qo'llanishi o'rganiladi. Perifrazalarning matn ekspressivligini oshirish, axborotni ta'sirchan yetkazish hamda o'quvchi e'tiborini jalb etishdagi o'rni yoritiladi. Tadqiqot davomida publitsistik uslubda uchraydigan shaxs nomlariga oid perifrazalarning semantik va uslubiy jihatlari misollar asosida tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar.** Publitsistik uslub, perifraza, shaxs nomlari, nominatsiya, uslubiyat, ekspressivlik, obrazlilik, ommaviy axborot vositalari, lingvistik birlik, ma'no ko'chishi, uslubiy vosita, matn tahlili.

O'tgan davr mobaynida davlat tilining hayotimizdagi o'rni va ta'sirini kuchaytirish, uni tom ma'nodagi milliy qadriyatga aylantirish yo'lida ilgari tasavvur ham qilib bo'lmaydigan ulkan ishlar amalga oshirildi. "...Istiqlol yillarida o'zbek tilining qo'llanish doirasi amalda nihoyatda kengaygani, uni ilmiy asosda rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar, tilimizning o'ziga xos xususiyatlariga bag'ishlangan ilmiy va ommabop kitoblar, o'quv qo'llanmalari, yangi-yangi lug'atlar ko'plab chop etilayotgani jamiyat tafakkurini yuksaltirishga o'z hissasini qo'shmoqda. Ayniqsa, davlat tilining xalqaro miqyosda ham faol muloqot vositasiga aylanib borayotgani e'tiborlidir. Xususan, xorijiy mamlakatlar rahbarlari bilan bo'ladigan uchrashuv va suhbatlar, muzokaralar, tegishli hujjatlarni imzolash marosimlarida, nufuzli sammitlarda, rasmiy matbuot anjumanlarda o'zbek tilining o'rni va ahamiyati ortib borayotgani hammamizga g'urur-iftixor bag'ishlaydi" [7, 86]. O'zbekiston respublikasi birinchi Prezidenti tomonlaridan keltirilgan ushbu fikrlardan to'laqonli ayon bo'ladiki, inson o'z aksini ko'zguda ko'rgani singari millat millatliligini, mamlakat mamlakatliligini, xalq xalqliligini, borligini, mavjudligini, yashayotganligini, Vatan deya nomlangan makonga ega ekanligini o'z tilida ko'radi.

Shunday ekan, *til takrorlanmas, go'zal, jimjimador, o'xshamas noyob topilmadir.* Uning noyob topilma ekanligini biz, til va tilshunoslik sohasida



erishilayotgan yangidan-yangi yutuqlarda, yaratilayotgan ilmiy ishlarda, eng asosiysi, nutqimizdagi o'zgarishlarda, kundalik turmushimizda bevosita guvohi bo'lamiz. Buning isbotini quyida ommaviy axborot vositalarida qo'llangan faktik tasviriy ifodalarni keltirish va tahlilga tortish orqali dalillaymiz.

Ma'lumki, ommaviy axborot vositalari publitsistik uslubda ish ko'radi. Publitsistik uslub o'zining ikki xil og'zaki va yozma shakliga ega bo'lib, yozma shaklini gazeta, jurnal; og'zaki shaklini esa radio va televideniye orqali kuzatamiz. Quyida publitsistik uslubning ham yozma, ham og'zaki shakliga tayanib misollar keltiriladi. Yozma shakllaridan olingan misollarning manbalari ko'rsatib boriladi.

Publitsistik uslubda qo'llanuvchi tasviriy ifodalarni ma'lum bir guruhlarga bo'lib, tahlil qilishga harakat qilamiz. Ushbu rejamizda publitsistik uslubda shaxs nomlarini ifodalovchi perifrazalar (tasviriy ifodalar)ni keltirib o'tamiz. Jumaladan:

*Shoirlar sultoni* – Hazrat Alisher Navoiy

*Dilbar shaxs* – Zahiriddin Muhammad Bobur

*Millatning yuzi* – muallim

*Benazir alloma* – Mirzo Ulug'bek

*Raqs malikasi* – Mukarrama Turg'unboyeva

*Fan bog'ining bog'boni* – ustozlar

*Oshxona farishtasi* – ayol

*Mehr-muhabbat va sadoqat timsoli* – Zulfiya

*Go'zallik va nafosat timsoli* – ayol

*Hayot abadiyligi ramzi* – ayol

*Muqaddas zot* – ona, ayol

**Xalqimizning yengilmas bahodiri – Alpomish**

*Bir so'z bilan aytganda, xalqimizning yengilmas bahodiri – Alpomish timsolida biz Vatanimizni yomon ko'zlardan, balo-qazolardan asrashga qodir, kerak bo'lsa, bu yo'lda jonini ham fido qilishga tayyor bo'lgan azamat o'g'lonlarimiz – bugungi alpomishlarning ma'naviy qiyofasini ko'ramiz [1,34].*

**Muhaddislar sultoni – Imom Buxoriy**

*Buyuk mutafakkir va allomalarimizning islom madaniyatini ravnaq toptirishga qo'shgan betakror hissasi to'g'risida so'z yuritganda, eng avvalo, haqli ravishda musulmon olami "muhaddislar sulton"i deya ulkan shuhrat qozongan Imom Buxoriy bobomizning muborak nomlarini hurmat-ehtirom bilan tilga olamiz [1, 38].*

**Tibbiyot ilmining sultoni – Ibn Sino**

*Konferensiyada o'rta asrlar Sharq allomalarining tibbiyot rivojiga qo'shgan hissasiga oid ma'ruzam bilan qatnashdim. Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy kabi allomalar ilmiy merosini katta qiziqish bilan*



*o'rganganman va tibbiyot ilmining sultoni – Abu Ali ibn Sino jahon tibbiyoti taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shgani "Tib qonunlari" asari Yevropa va dunyodagi boshqa qator davlatlarning tibbiyot oliy o'quv yurtlarida abadiy chashma bo'lib xizmat qilmoqda [Barbara Potrata, Kembrij universitetining Markaziy Osiyo bo'yicha forumi ilmiy xodimi nutqidan (Buyuk Biritaniya)].*

#### **Mardlik va donishmandlik ramzi – Amir Temur**

*Buyuk bobolarimizning ma'naviy olami xususida fikr yuritganda, Sohibqiron Amir Temur haqida alohida to'xtalishimiz tabiiydir, chunki tengsiz azmu shijoat, mardlik va donishmandlik ramzi bo'lgan bu mumtoz siymo buyuk saltanat barpo etib, davlatchilik borasida o'zidan ham amaliy, ham nazariy meros qoldirdi [1, 44].*

#### **Benazir alloma – Mirzo Ulug'bek**

*Buyuk Amir Temurning nabirasi, benazir alloma Mirzo Ulug'bekning o'rta asrlar sharoitida namoyon etgan ilmiy jasorati bugungi kun olimlarini ham hayratga solmasdan qo'yamaydi [1, 45].*

*Bu benazir alloma o'zida minglab yulduzlarning harakatini jamlagan mukammal astronomik jadvalni yaratdi [1, 46].*

#### **Aql-zakovat timsoli – Platon**

*Necha asrlardan buyon yuksak tafakkur va aql-zakovat timsoli bo'lib kelayotgan antik davrga mansub yunon faylasufi Platonning hayot yo'lini o'zimizga bir tasavvur qilib ko'raylik [1, 160].*

#### **Inson ruhining muhandislari – shoir va yozuvchilar**

*Adabiyotni insonshunoslik deb, shoir va yozuvchilarning esa inson ruhining muhandislari, deb ta'riflanishi bejiz emas, albatta [1, 136].*

#### **Xalq ma'naviyatining munosib egalari – yoshlar**

*Yana bir dolzarb vazifa – o'sib kelayotgan avlodga, uning ma'naviy tarbiyasiga nihoyatda katta javobgarlik hissi bilan yondashish masalasi. Nega deganda, yoshlar xalq ma'naviyatining munosib egalidir [1,80].*

#### **Yashil maydon sohiblari – futbolistlar**

*O'n to'rtinchi iyulda Britaniya yashil maydon sohiblarini kutib oladi. [Davriy informatsion dasturidan Miraziz Mirzayevning sport xabarlarini haqidagi nutqidan].*

#### **Salomatlik posbonlari – shifokorlar**

*"Barkamol avlod – 2014" sport musobaqalarida namanganlik salomatlik posbonlari zimmasiga musobaqa ishtirokchilarining sog'lig'ini muhofaza etish vazifasi yuklatilgan [1, 15].*

Keltirilgan misollar orqali fikrimizga oydinlik kiritar ekanmiz, ommaviy axborot vositalari publisistik uslubda ish ko'rish bilan birgalikda, **axborot berish** va **ta'sir qilish** vazifasini ham bajarishi va bunda, albatta, tasviriy ifodalardan



o‘rinli, samarali foydalanilganligiga ishonch hosil qildik. Buning to‘laqonli tasdig‘ini esa Prezidentimiz asarlaridan keltirilgan misollarda ko‘rdik.

Publitsistik uslubda shaxs nomlarini ifodalovchi perifrazalar tilning obrazlilik va ta‘sirchanlik imkoniyatlarini namoyon etuvchi muhim uslubiy vositalardan biri hisoblanadi. Ular matnda shaxs nomini takrorlashning oldini olish, axborotning ifodaviyligini kuchaytirish hamda o‘quvchi e‘tiborini jalb etishga xizmat qiladi. Perifrazalar orqali muayyan shaxsning faoliyati, kasbi, ijtimoiy mavqei, tarixiy xizmatlari yoki o‘ziga xos xususiyatlari obrazli tarzda yoritiladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, publitsistik matnlarda qo‘llaniladigan shaxs nomlariga oid perifrazalar nafaqat nominativ vazifani, balki baholash, ta‘sir etish va estetik vazifalarni ham bajaradi. Ular matnning mazmuniy boyligini oshirib, muallifning munosabatini ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, mashhur siyosatchilar, fan arboblari, san‘atkorlar va sportchilarni tavsiflashda perifrazalardan keng foydalaniladi.

Shunday qilib, publitsistik uslubda shaxs nomlarini ifodalovchi perifrazalar tilning uslubiy imkoniyatlarini kengaytiruvchi, nutqning ta‘sirchanligi va obrazlilikini oshiruvchi muhim lingvistik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Ularni o‘rganish publitsistik matnlarning semantik va uslubiy xususiyatlarini chuqurroq anglashga, shuningdek, o‘zbek tilshunosligida perifraza hodisasining nazariy va amaliy jihatlarini yoritishga xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: “Ma‘naviyat”, 2009. –173 b.
2. Ma‘rifat, 2014. 33-son, 16 bet.

